

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

AMIRULLAYEVA BARNO ABDULHAQOVNA

**TABIIY FANLAR (SCIENCE)NI O‘QITISHDA O‘QITUVCHILARNING
O‘QUV-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
(6-sinf misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent -2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertatsion abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical Sciences**

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna

Tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish (6-sinf misolida) 3

Амируллаева Барно Абдулхаковна

Развитие учебно-методической подготовки учителей при преподавании естественных наук (Science) (на примере 6 класса) 23

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna

Developing teaching-methodical preparation of teachers in teaching Science (in the case of the 6th grade) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 50

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

AMIRULLAYEVA BARNO ABDULHAQOVNA

**TABIIY FANLAR (SCIENCE)NI O‘QITISHDA O‘QITUVCHILARNING
O‘QUV-METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
(6-sinf misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tabiiy fanlar)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped4079 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://avloniy.uz>) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov A’lamjon Amrilloevich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Fayziyeva Mahbuba Rahimjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28/30.12.2019.ped.68.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel: (+998) 55-508-06-67, e-mail: info@avloniy.uz)

Dissertatsiya bilan A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 6-uy. Tel: (+998) 55-508-06-67).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ _____ ” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “ _____ ” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

I.A.Xurramov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

A.E.Ibraymov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati: Jahon ta'lim amaliyotida integrativ jarayonlar, ilmiy-texnik bilimlarning jamiyat va fan rivojiga ta'sirini kuchaytirish, kognitiv faoliyatga asoslangan tushunchalar tizimi hamda umumlashgan ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Xitoy, Singapur, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya kabi davlatlarda tabiiy fanlarni integrativ o'qitishga ustuvorlik berilib, Amerika fan taraqqiyoti assotsiatsiyasi (AAAS) tomonidan tabiiy fanlar (Science) mazmuni ilmiy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida o'quv dasturlarini shakllantirishning bosh maqsadi etib belgilanishi¹ muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy bilimlarning tez rivojlanishi sharoitida konstruktiv yondashuv asosida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon miqyosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda tadqiqotchilar hamda o'qituvchilarning o'zaro hamkorligi, ilmiy izlanishlarga asoslangan integrativ o'qitish usullari, o'quvchilarga tabiiy fanlarning turli sohalarini birlashtirgan muammolarni hal qilish imkoniyatlarini taqdim etish (sog'liq va xavfsizlik, ekologik va barqaror rivojlanish)da hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda, mashg'ulotlarni fanlararo aloqadorlikda olib borish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlash, ularni kasbiy va shaxsiy rivojlantirish, konstruktiv yondashuv asosidagi o'quv dasturlarini ishlab chiqishga doir tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitish, o'quvchilarda ilmiy savodxonlikni oshirish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish, ilg'or tajribalar va zamonaviy o'qitish metodikalarini o'rganish, pedagoglarni kasbiy rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini tatbiq qilish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "...maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish"² vazifasi belgilangan. Bu esa, umumta'lim maktablari tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilari o'quv-metodik tayyorgarligini oshirishning pedagogik, psixologik, ilmiy-metodik asoslari, modeli, metodikasi va ta'lim mazmunini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 18-avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya

¹ American Association for the Advancement of Science, Project 2061. Science for All Americans Summary. Washington, DC: American Association for the Advancement of Science [Elektron resurs]. – URL: <http://www.project2061.org/publications/articles/2061/sfaasum.htm>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni-QHMMB, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son.

yoʻnalishlarida uzluksiz taʼlim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son “Maktabgacha va maktab taʼlimi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda 867-son “Maktabgacha va maktab taʼlimi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi: Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” nomli ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mamlakatimizda tabiiy fanlarni oʻqitishda oʻquvchilarda ilmiy-tadqiqotchilik koʻnikmalari, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish boʻyicha N.Aytimbetov, G.Karlibayeva, A.Raximov, Q.Suyarov, Z.Sangirovalar integratsiya asosida fanlarni oʻqitish muammolari yuzasidan R.Mavlonova, Sh.Mamaradjabov, Sh.Xasanovalar pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish va oʻquv mazmunini yangilash boʻyicha A.Ibragimov, A.Ibraymov, Sh.Sayidqulov, J.Tolipova, M.Yuldashevlarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi (MDH)da fanlararo aloqalar nazariyasi va metodologiyasiga oid A.Guryev, V.Gubin, S.Krestnikov, V.Maksimov, O.Syutkina, N.Yakoblevalar tabiiy fanlar (Science) oʻqituvchilarini tayyorlashning metodik tizimi va malakasini oshirishning uzluksizligini taʼminlash muammolari yuzasidan V.Medvedev, V.Osnovina, N.Pavlenko, M.Raxmatulin, N.Shelexovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy mamlakatlarda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda muammoli va hamkorlikda oʻqitish masalalari Abd El Xalik, J.Bruner, W.Comas, J.Dyui, N.Ledermanlar tabiiy fanlar (Science) oʻqituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida konstruktiv yondashuvni singdirishga oid H.Barrows, M.Caton, L.Darling-Hammond, M.Hanson, A.Kookan, L.Karena, J.Olson, K. Usher, J.Wallace, K.Whitelar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq, “Xalq taʼlimi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish” bandi doirasida bajarilgan (2021-2024-yy.).

Tadqiqot maqsadi tabiiy fanlar (Science)ni oʻqitishda oʻqituvchilarning oʻquv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy fanlar integratsiyasining o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi o'rnini integrativ va o'zaro ta'sir etuvchi omillarini ustuvorlashtirish asosida aniqlashtirish;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligi mazmunini integrativ kategoriyalar va amaliyotga bog'liqlik mezonlari asosida yoritib berish;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish didaktik modelini takomillashtirish;

kasbiy rivojlantirish kurslarida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayonlari tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari pedagogik mahorat markazlaridan 524 nafar tinglovchilar ishtirok etgan.

Tadqiqot predmetini tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, shakl va metodlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tajriba-sinov, modellashtirish, loyihalash, so'rovnoma, test, suhbat, o'zaro dars tahlili, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy fanlar integratsiyasining o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi o'rnini integral tendensiyalar, fanlararo bog'liqlik, maxsus tayyorgarlik, maqsadga muvofiqlik, kollegiallik, qayta aloqa, xorijiy tajribalarga tayanish omillarini ustuvorlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligi mazmuni integrativ kategoriyalar, reflektiv baholash, kasbiy amaliyot tuzilmasi, tarkibiy komponentlar, o'lchovlar konsensusi, amaliyotni kuchaytirish, uzluksizlik, uzviylik, kognitiv, ijtimoiy, radikal konstruktivizm turlarini belgilash asosida yoritilgan;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modelining (motivatsiya va maqsadni belgilash, konseptual, mazmunga doir, texnologik va diagnostik-baholash) komponentlari mazmuni harakatchanlik, o'zaro ta'sir, shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlar integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

kasbiy rivojlantirish kurslarida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi o'quv dasturini aniq mezonlar, omillar va talablar asosida ishlab chiqish, jarayonni loyihalash, konstruktiv texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, muammolarni tushunish va hal qilish hamda bilimlariga tayanish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda fanlarni integratsiya asosida, loyihalash, muammoli vaziyatlar tashkil etish, 5E modeli orqali o'qitish metodikasi amaliyotga joriy etilgan;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilar kasbiy rivojlantirish kursi uchun o'quv reja va dasturi ishlab chiqilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda fanni innovatsion, pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga doir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan "Zamonaviy yondashuvlar asosida tabiiy fanlar darslarini tashkil etish" nomli o'quv va "VI sinfda tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish metodikasi" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

Tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining zamonaviy ko'rgazma-tajribalar va laboratoriya mashg'ulotlari orqali fanni o'qitish samaradorligini oshirish va ularni uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida "Kognitiv o'qitish metodikalari laboratoriyasi" nomli elektron platforma ishlab chiqilgan (№ DGU 45935).

2022-2023-yillarda uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv reja va dasturida belgilangan "Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari" 7-moduli tarkibiga "Tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmasini rivojlantirish" nomli mavzu kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, ilmiy tadqiqotlar olib borish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi takomillashgani, taklif etilgan model va metodika uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan taklif va mulohazalar tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha o'quv reja va dasturlar, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqishda, fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyati davomida davriy va kasbiy kompetentligini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish (6-sinf misolida) mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

tabiiy fanlar integratsiyasining o'qituvchilarning o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirishdagi o'zni integral tendensiyalar, fanlararo bog'liqlik, maxsus tayyorgarlik, maqsadga muvofiqlik, kollegiallik, konseptuallik, qayta

aloqa, xorijiy tajribalarga tayanish omillarini ustuvorlashtirish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida xalq ta'limi pedagog xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarini tashkil etish bo'yicha 2021-2022-yillarda bajarilgan "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish-2022" nomli amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 11-iyuldagi 06-36-1408-son ma'lumotnomasi). Natijada, tabiiy fan o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv metodik tayyorgarligi mazmuni integrativ kategoriyalar, reflektiv baholash, kasbiy amaliyot tuzilmasi, tarkibiy komponentlar, o'lchovlar konsensusi, amaliyotni kuchaytirish, uzluksizlik, uzvilik, kognitiv, ijtimoiy, radikal konstruktivizm turlarini belgilash asosida yoritilganligiga doir amaliy taklif va tavsiyalardan A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti, Respublika ta'lim markazi va YUNISEF xalqaro tashkiloti hamkorligida uzlms.uz platformasida Tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilari uchun tashkil etilgan qisqa muddatli kurs loyihasi doirasida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 11-iyuldagi 06-36-1408-son ma'lumotnomasi). Natijada, fan o'qituvchilarining 6-sinfda tabiiy fanlar (Science)ni o'qitish ko'nikmasi rivojlantirilgan.

tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modelining (motivatsiya va maqsadni belgilash, konseptual, mazmunga doir, texnologik va diagnostik-baholash) komponentlari mazmunini harakatchanlik, o'zaro ta'sir, shaxsiy fazilatlar va tashkiliy-konstruktiv qobiliyatlar integratsiyasini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida Tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilar uchun tashkil etilgan qisqa muddatli kurs loyihasi doirasida foydalanilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 11-iyuldagi 06-36-1408-son ma'lumotnomasi). Natijada uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi dasturi mazmuni loyiha ishlari, muammoga asoslangan ta'lim texnologiyalari, so'rovga yo'naltirilgan 5E modeli asosida tashkil etish imkonini bergan;

kasbiy rivojlantirish kurslarida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi o'quv dasturini aniq mezonlar, omillar va talablar asosida ishlab chiqish, jarayonni loyihalash, konstruktiv texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, muammolarni tushunish va hal qilish hamda bilimlariga tayanish asosida takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar, Milliy o'quv dasturi loyihasida yaratilgan 6-sinf Tabiiy fanlar darsligini mazmuniga singdirilgan. (Respublika ta'lim markazi 2024-yil 12-noyabrdagi 01/11-5-945-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarning darslarni integratsiya asosida tashkil etish va ijtimoiy-hayotiy mazmundagi vaziyatlar yaratish ko'nikmalari rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ishlar, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e‘lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari**”, deb nomlangan birinchi bobida ta‘limda fanlararo integratsiyaning nazariy va uslubiy asoslari, tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish muammolari, o‘qituvchilarning o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda konstruktiv yondashuvning ahamiyati, tadqiqot muammolari bo‘yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston, MDH davlatlari va xorijlik olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot jarayonida fanlararo aloqalar hamda fanlararo integratsiya o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlari, o‘quv fanlari tarkibidagi integratsiya jarayonining belgilari, integratsiyalashgan tabiiy fanlar (Science) ta‘limining afzalligi va integratsiyalashgan tabiiy fanlar (Science) ta‘limi samaradorligiga to‘sqinlik qiluvchi holatlar aniqlandi va tahlil qilindi. Integratsiyalashgan ta‘lim bo‘yicha bahs-munozaralar asosan o‘qitish mazmunini uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, fanni integratsiyalash tajribasi umumiy ta‘lim mazmuni tuzilishining uchta asosiy tarkibiy qismida, ya‘ni o‘quv predmetiga doir bilimlar, o‘quv va kognitiv faoliyatdagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan ko‘nikmalar va ta‘lim jarayonidagi turli fanlardan bilimlarni sintez qilish orqali shakllangan munosabatlar tizimlarida aks ettirilishi lozim. Mualliflik fikrimizcha o‘quv jarayonining integratsiyasi, bir tomondan, turli sohalardagi bilimlarni o‘zaro boyitish, bilim va ko‘nikmalarning birligi bo‘lsa; boshqa tomondan, ta‘lim zinapoyasining turli bosqichlari orasidagi uzluksizlik, ularning barcha bosqichlarini qamrab oladigan yagona ko‘tarilish zonasiga birlashtirish orqali shaxsning hayotiy va kasbiy rivojlanishidir. Tadqiqot davomida tabiiy fanlarni

integratsiyalash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish aniqlandi: fanlar aloqalar-didaktik sintez-yaxlitlash.

Yuqoridagilarni umumlashirib, xulosa qilishimiz mumkinki, zamonaviy ta'limda integrativ jarayonlarga bo'lgan ehtiyoj ilmiy-texnik bilimlarning jamiyat rivojiga, shuningdek, fanlarning holatiga ta'sirining kuchayishi bilan bog'liq.

Integratsiya ta'lim mazmunini yangilash strategiyasini shakllantirishning xususiyatlaridan biridir. Hozirda amaliyotga joriy qilingan tabiiy fanlar (Science) darsligi fizika, geografiya, astronomiya, kimyo va biologiya fanlari integratsiyasi asosida tuzilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimida fan o'qituvchilarini tayyorlash yo'lga qo'yilmaganligi dolzarb muammodir. Bu esa ushbu fandan dars beruvchi o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratildi hamda tadqiqotchi olimlarning tadqiqot ishlari o'rganildi. Jumladan: V.Slastenin fikriga ko'ra o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligi—bu o'qituvchilarning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarga sifatli bilim berish uchun zarur bo'lgan nazariy, amaliy va metodik bilimlarni hamda kasbiy ko'nikmalarni egallash darajasidir.

J.Tolipova o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligi aynan bir fanga tegishli bo'lgan xususiyatlarni inobatga olib o'qitish orqali didaktik maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning yig'indisi deb olish mumkinligini ta'kidlaydi.

G.Karlibayeva o'qituvchining pedagogik faoliyatni boshlashdan oldingi holatini nazarda tutadi. U o'qituvchining pedagogik kasbini ongli ravishda tanlaganligi, unga tegishli bilimlar, ko'nikmalar, malakalar hamda shaxsiy sifatlarining pedagogik faoliyat davomida namoyon bo'lishi va doimiy ravishda kasbiy salohiyatini rivojlantirishi jarayonidir deb hisoblaydi.

Bing Vei o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligini seminarlar, muammoli ta'lim, mustaqil izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va hamkorlikda ishlashlari orqali yangi g'oyalarni egallash, mavjudlarini takomillashtirish, o'zgartirish, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi.

Shulman o'z tadqiqotlarida o'qituvchi o'quv-metodik tayyorgarligini o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan kontent bilimlar (fan bo'yicha mazmuniy bilimlar, pedagogik bilimlar hamda o'quv dasturlari bo'yicha bilimlar)ni egallash darajasi degan fikrni ilgari suradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tabiiy fanlar (Science) ya'ni tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya, astronomiya) integratsiyasi asosida tuzilgan fan bo'lib, tadqiqot davomida fan o'qituvchilari tomonidan olib borilayotgan ta'lim va tarbiya jarayonining tahlil etilishi faqat bir fan bo'yicha bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Tabiiy fanlar (Science) mazmuni – bu fan falsafasi, sotsiologiya, fan tarixi kesishgan nuqtada aks etadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar asosida mualliflik ta'rifimizga ko'ra o'qituvchilar o'quv-metodik tayyorgarligi o'quvchilar, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlari haqida doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni o'rganishimiz natijasida rivojlanadigan davomiy jarayon sifatida tushuniladi.

Rivojlangan davlatlar Xitoy, AQSh, Singapur, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar ta'lim tizimini o'rganish jarayonida o'qituvchi nafaqat o'z fani mutaxassisi, balki tabiiy fanlar integratsiyasi bo'yicha ilmiy va pedagogik, shuningdek, fan falsafasi, tarixi va sotsiologiyasi haqida ham bilimlarga ega bo'lishi, quyidagi strategiyalarga: kollegial hamkorlikni kuchaytirish; fan bo'yicha bilimlarni yangilash; o'qitish konsepsiyasini qayta shakllantirish; o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishga amal qilishi fanni samarali o'qitishning pedagogik-psixologik parametrlari sifatida talqin qilindi. Bu jarayonda ta'limdagi o'zgarishlarni o'qituvchining o'zini o'zi baholashi kabi reflektiv amaliyotlar orqali osonlashtirish mumkin.

Shuningdek, bugungi globalashuv sharoitida tabiiy fanlar (Science)ni o'rganish va o'rgatish muammosini hal qilishda konstruktivizm ta'lim nazariyasi ustuvor deb belgilash zarurati yuzaga kelmoqda. Konstruktivizm asosan o'rganishning faol va interaktiv ko'rinishidir. Konstruktivizm o'quvchining atrof olamni tushunishi boshqalarning taqdimoti emas, balki o'z bilimni faol qurishi natijasidir. Tadqiqot davomida Jerome Bruner, Von Glazersfeld, Lev Vigotskiy, Jan Piage, Bada kabi tadqiqotchi olimlarning ishlari o'rganilishi natijasida konstruktivizmning ta'limda namoyon bo'lishi holatlari tahlil qilindi. Natijada, ta'limda konstruktivizm, hamkorlikda ishlash, muammoga, loyihaga asoslangan ta'lim, tadqiqot o'tkazish, izlanish, shuningdek, 5E modeli kabi ta'lim modellari falsafiy asosi sifatida qaralishi aniqlandi. Konstruktiv yondashuv o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'limdan o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limga o'tishga yordam berib, bunda o'qituvchilar ta'limida sodir bo'ladigan o'zgarishlar tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

O'qituvchilar ta'limida sodir bo'ladigan asosiy o'zgarishlar

An'anaviy ta'limdan	Konstruktiv ta'limga
Belgillangan o'quv reja va qat'iy tartib intizomga rioya qilinadi	O'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinadi
Asosan takrorlashga qaratilgan bilim olish	O'rganish interaktiv bo'lib, o'quvchi o'zida mavjud bilimlarga tayanadi
O'qituvchiga qaratilgan	O'quvchilarga qaratilgan-markazda o'quvchi
O'qituvchi tayyor bilimlarni o'quvchiga uzatadi (passiv o'rganish)	O'qituvchi yo'naltiruvchi bo'lib, o'quvchilarning o'z bilimlarini qurishlariga yordam beradi (faol o'rganish)
O'qituvchining roli ko'rsatmali bo'lib, boshqaruvga asoslangan	O'qituvchining roli faollashtiruvchi, muzokaralarga asoslangan
Bilim "berilgan" va mustahkamlangan	Bilim rivojlanish va yaratilish jarayonida
O'quvchilar asosan yolg'iz ishlaydilar	O'quvchilar asosan guruhlarda hamkorlikda ishlaydilar

Bu o'z navbatida, bilimlarni oshirish maqsadida konstruktiv strategiyalar bo'yicha seminarlar tashkil etishni va o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish o'quv dasturlariga konstruktiv yondashuvni singdirishni talab qiladi.


Dissertatsiyaning "Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi" deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda

o'qituvchilarning mavjud tayyorgarlik holati, fanni o'qitishda o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modeli, o'qituvchilarni tayyorlash dasturining mazmuni va tuzilishi, o'quv jarayonini konstruktiv yondashuv asosida muammoli, loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi, 5E modeli va Strup effekti, "Kundalik hayotda ilmiy amaliyot" metodlari asosida tashkil etish metodikasi masalalari yoritib berilgan.

Tabiiy fanlar (Science) mazmuni bo'yicha aniq bir standart yo'q, biroq bir qancha rivojlangan davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Finlandiya, Singapur, Germaniya, Turkiya) ta'lim tizimi tahlil qilinganda tadqiqotchi olimlar tomonidan ma'lum bir konsensusga erishilganligi va fan mazmuni ushbu o'lchovlar bo'yicha ifodalanishi aniqlandi. Bugungi globallashtirish sharoitida ushbu fanni o'rganish va o'rgatish muammosini bartaraf etish uchun o'qituvchilarni o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirib borish asosiy vazifaga aylanishi va quyidagilar ustuvor deb belgilanishini zaruriyati asoslandi: tabiiy fanlar (Science) bo'yicha bilimlarini rivojlantirish; pedagogik bilimlarni rivojlantirish; uzluksiz ta'lim salohiyatini rivojlantirish.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining o'quv metodik tayyorgarligini rivojlantirish modelini takomillashtirish hamda uning komponentlarini tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish imkonini berdi. Mazkur model o'zaro bog'liq hamda bir birini taqozo qiluvchi motivatsiya va maqsadni belgilash, konseptual, mazmunga doir, texnologik, diagnostik-baholash komponentlarini o'z ichiga oladi (1-rasm). Bu komponentlar o'zaro bog'liq bo'lib, motivatsiya va maqsadni belgilash komponenti boshqa barcha komponentlar uchun yetaklovchi vazifasini o'taydi.

Modelning konseptual komponenti tarkibi o'qituvchilarning o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishni modellashtirish uchun asos bo'lgan nazariy yondashuvlar: aksiologik, tizimli, tarkibiy-funksional, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo'naltirilgan, individual-ijodiy, andragogik, konstruktiv va tamoyillar: demokratlashtirish, uzluksizlik, differensiallashtirish va individuallashtirish, konstruktivlik, integrativlik, murakkablik, hamkorlikda o'qitish, ko'rgazmalilik va reflektivlikdan iborat deb xulosalandi.



1-rasm. Tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning didaktik modeli

Mazmun komponenti o'quv-metodik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan o'quv kursi dasturi, kasbiy rivojlanishning metodik ta'minoti, qo'shimcha materiallar va metodik tavsiyalardan iborat ekanligi belgilangan.

Tashkiliy-texnologik komponent tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda turli shakl, texnologiya va metodlarni o'z ichiga oladi hamda ehtiyojlari va imkoniyatlariga asoslangan holda, mualliflik kurslari va kasbiy rivojlantirish platformalarda kasbiy rivojlantirish nazarda tutildi.

Diagnostik baholash komponenti tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning tabiiy fanlarni samarali o'zlashtirishlari va savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish ularning bilim darajasi, kasbiy mahorati va motivatsiyasiga bog'liqligi asoslandi.

Diagnostika, o'qituvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha bilimlari, pedagogik yondashuvlari va motivatsiyalarini baholash imkonini beradi, bu esa zamon talablari darajasida o'qitish va o'quvchilarni mustaqil ilmiy savodxonlikka tayyorlashda yordam beradi.


Tabiiy fanlar (Science)ni o'qitishda fan o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatning biz aniqlagan tarkibiy qismlari va uni amaliy amalga oshirish usullari o'zaro uzviy bog'liq holda yaxlit, dinamik tizimni tashkil etadi.

Bundan tashqari tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilarining o'qitish samaradorligini ko'rsatib beruvchi eng asosiy omil bu ularning o'quv va reja dasturlarida keltirilgan kasbiy rivojlantirish kurslarida o'qitish mazmunidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, dastlab tabiiy fanlar o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda o'quv dasturlarini ishlab chiqishi, o'qituvchilar doimiy ravishda dastur bilan aloqada bo'ladigan muhit yaratilishi va doimiy fikr-mulohazalarini taqdim etish orqali o'zlarining pedagogik tajribalarini baham ko'rishlari va yaxshilashlari kerak. Shu nuqtayi nazardan qisqa muddatli kurs o'quv dasturi tajriba sinovdan o'tkazish jarayonida aniqlangan mezonlar asosida ishlab chiqildi.

Ushbu mezonlarni amalga oshirish nafaqat o'quv dasturlari mazmunini maksimal darajada optimallashtirish, balki tabiiy fanlarni samarali o'qitish muammosiga eng muhimlarini jamlash, uni zamonaviy fan ta'limi ehtiyojlariga, rivojlanish an'alariga, shuningdek, fan o'qituvchilarining kasbiy qiziqishlari va talablariga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki tabiiy fanlar (Science) o'qituvchilari samarali o'quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish o'qituvchining faol o'rganishga yordam beradigan, hamkorlikka asoslangan, o'quv dasturlarining o'ziga xos konteksti va maktab ta'limi bilan uyg'un bo'lgan kasbiy rivojlanish muhitida amalga oshadi. O'z navbatida, samarali kasbiy rivojlanishning tadqiqotga asoslangan komponentlari konstruktiv ta'lim muhitining ko'plab xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Muammoli, loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyalari, so'rovga asoslangan 5E modeli "konstruktiv ta'lim muhitining eng yaxshi namunalaridan

biri” sifatida qabul qilinishi yoritib berilgan. Tadqiqot tahlillari natijasida tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitishda konstruktiv yondashuv asosida muammoli, loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi orqali o‘qitish metodikasi yoritib berildi (2-rasm). Ushbu metodika besh bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda bajariladigan vazifalar ketma-ketligi aniq belgilangan va tizimli ravishda taqdim etilgan. Konstruktiv yondashuv asosida muammoli, loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi orqali o‘quv jarayonini tashkil etishda “Strup effekti” metodini qo‘llash natijadorligi aniqlandi va amaliyotga joriy etildi.




2-rasm. Konstruktiv yondashuv asosida muammoli, loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi orqali o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi

Shuningdek 5E modeli asosida tabiiy fanlar (Science) darslarini tashkil etishning metodik tizimi ishlab chiqildi (3-rasm). Modelning har bir bosqichida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan faoliyatlar, shu jumladan, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘ziga xos vazifalari aniq belgilandi. “Kundalik hayotda ilmiy amaliyot” metodi ishlab chiqildi va 5E modeli asosida tabiiy fanlar (Science) darslarini tashkil etish metodik tizimining kengaytirish bosqichida qo‘llash metodikasi yoritib berildi. “Kundalik hayotda ilmiy amaliyot” metodi to‘rt bosqichdan iborat (4-rasm): 1. Muammoli holat taqdim etish; 2. Eksperiment; 3. Hayotiy misollarda tushuntirish; 4. Xulosa chiqarish va amaliyotga tatbiq etish.

Mazkur metodik tizimda 5E modelining har bir bosqichi va unda taklif etilayotgan faoliyat, o‘qituvchi va o‘quvchi vazifalari ko‘rsatib berildi. 6-sinf tabiiy fanlar (Science) darsligida berilgan ilmiy tadqiqot o‘tkazishga yo‘naltirilgan mavzular va darslikka qo‘shimcha qilish mumkin bo‘lgan loyiha ishlarini amalga

oshirish metodikasi yoritib berilgan. Taklif etilgan ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlar o'tish o'qituvchilarda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirish shu bilan birga mashg'ulotlarni sifatli tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.




3-rasm. 5E modeli asosida darslarni tashkil etishning metodik tuzilmasi

Hayotiy misollarda tushuntirish

O'quvchilar turli hayotiy vaziyatlar va muammolar asosida ilmiy yondashuvni qo'llab, o'z bilimlarini kengaytiradilar

Xulosa chiqarish va amaliyotga tatbiq etish

O'quvchilar tajriba va tadqiqot natijalari asosida xulosa chiqaradilar va birinchi bosqichda berilgan muammo yechimiga tatbiq etadilar



Muammoli holat taqdim etish

Mavzu bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muammoli vaziyat taqdim etiladi (keys), savollar beriladi

Eksperiment

Mavzuga doir tajribalar o'tkazishadi, kerak bo'lganda matematik hisoblash ham o'tkazishlari mumkin

4-rasm. "Kundalik hayotda ilmiy amaliyot" metodini o'tkazish bosqichlari

Dissertatsiyaning “**Tabiiy fanlarni o‘qitishda fan o‘qituvchilari o‘quv-metodik tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni hamda ularning natijalari batafsil tavsiflangan.

Tajriba-sinov jarayonlari Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlari pedagogik mahorat markazlarida olib borildi. Tadqiqotda tinglovchilarda fan mazmuni bo‘yicha bilimlar, fanni o‘qitishda motivatsion, kognitiv-tadqiqotli, konstruktiv-tashkiliy, mobilizatsion, kommunikativlik ko‘nikmlarining rivojlanganligi samaradorlik mezonlari sifatida belgilandi va faoliyat ko‘rsatkichlari aniqlandi (2-jadval). “Qoniqarsiz”, “tanqidiy”, “maqbul” va “optimal” darajalar bo‘yicha baholandi.

2-jadval

Mezonlar asosida aniqlangan faoliyat ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Faoliyat ko‘rsatkichlari
Motivatsion	- tabiiy fanlar (Science)ni o‘qitish muammosi bo‘yicha o‘z-o‘zini uzluksiz kasbiy rivojlantirib borish zarurligi va shaxsiy ahamiyatini anglashi, fanni o‘qitishda kognitiv qiziqishlarning mavjudligi, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga intilishi, fanni o‘rganishga bo‘lgan kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishda integratsiyaning ahamiyatini bilishi
